



MUSIQA DARSALARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Muallif: Komoliddinova Malika Zarif qizi¹, Kaldibekova Anargul Sotbarovna²

Affiliatsiya: Nizomiy nomidagi TDPU, Musiqa ta'limi yo'nalishi, 2-kurs talabasi¹, Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f.n²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14407340>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqaning inson hayotidagi o'rni, musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar, musiqa darslarining olib borish jarayonlari, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari, dars jarayonida foydalanish zarur bo'lgan metodlar, o'qituvchining dars jarayoniga yondashish uslublari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, ta'lif tizimi, ijodiy qobiliyat, faoliyat turlari, musiqiy metodlar, ijodkorlik.

Musiqa ham fan va ham sana'tdir. Musiqa sana'ti inson hayotining ilk yil-laridanoq uning hamrohiga aylanib, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi..

Inson o'z tuyg'ulari, orzu-umidlari, xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bu kishining his tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning shakllanishida musiqaning o'rni beqiyosdir. U insonda estetik didni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Chunki borliqdagi go'zalliklarni ko'ra bilgan, uni his eta organ insondan hech qachon yomonlik chiqmaydi, shu sababli musiqa o'quvchilarni go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik va kulfatni anglash, oq va qorani ko'ra bilish va uni ajrata olishga o'rgatadi.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, musiqa o'quvchilarga o'z shaxsiyatini to'liq va erkin shaklda ochib berishga, borlig'ini butun vujudi bilan his eta olishga ko'mak beradi. Boisi, u insonning eng nozik tuyg'ulariga, qalbining chuqur joy-lariga ta'sir ko'rsata olish xususiyatiga ega. Musiqada nafaqat go'zal ohang, balki ijrochining mahorati, uning qalbida ijro vaqtida kechayotgan his-tuyg'ular, ba'zida mungli, ijtirobli, alamlı, ba'zan esa sho'x va quvnoq kayfiyatlar ham o'z aksini topadi.

Har qanday fanni, shu jumladan musiqa fanini o'qitish jarayonida ham faol-lashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil teran fikrashi va o'z fikrlarini bayon eta oladigan o'quvchi sifatida namoyon qilishi uchun mkoniyat yaratuvchi – bu o'qituvchidir.

Shu boisdan, bugungi kunda musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yiladigan talablar juda katta. Endilikda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qarorlariga ko'ra, mu-siqa o'qituvchisi milliy cholg'ularning kamida 3 tasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lishi, o'quvchilarning esa milliy cholg'ularidan kamida bittasini ijro etish qobiliyatiga ega bo'lishi, bundan tashqari o'quvchilarning darsdan tashqari vaqt-larini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda milliy musiqa

cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garak o'qituvchi tomo-nidan tashkil etishi va maxsus musiqiy adabiyotlar, nota to'plamlari, darslik bilan umumta'lim maktablarini ta'minlash belgilab qo'yildi.

Bu esa musiqa darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarining samara-dorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Musiqa darsi foydali, mazmunli va qiziqarli tashkil etilishida musiqa fani o'qituvchisi har xil musiqiy metod va usul-lardan, qiziqarli didaktik o'yinlar va ritmik harakatlardan foydalanishi darkor. Buning uchun o'qituvchi ,avvalo, chuqur bilim va yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo'lish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari endi o'sib kelayotgan, har xil muhitda tarbiya ko'rgan, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har xil temperamentlarga ega bo'lgan yosh o'quvchilardir. Mana shu yerda musiqa o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Ya'ni musiqa o'qituvchisi har bir o'quvchiga alohida yondashib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini puxta bilishi, ularga to'g'ri munosa-batda bo'lishi lozim. O'ta qattiqko'llik va o'ta muloyimlik qilmagan holda o'rtacha pozitsiyani qo'llab borishi juda zarur. O'quvchi mana shu pozitsiyani va tarbiyani boshqacha olsagina, o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun imkon yaratiladi. Musiqa darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni 5 ta faoliyat asosida amalga oshirish mumkin:

musiqa tinglash; qo'shiq kuylash; musiqa savodxonligi; musiqiy ritmik harakatlar; bolalar musiqa asbobida chalishi.

Ushbu faoliyat turlari maktab o'quvchilarining, mahorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib, dunyoqarashini kengayti-rishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa tinglash, uning badiiy mazmunini his etish orqali o'quvchilarda musiqiy ong, estetik did va estetik tarbiya shakllanadi. Bu esa o'z-o'zidan o'quv-chilarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishda poydevor vazifasini bajaradi. Chunki musiqa tinglash orqali o'quvchilar o'z badiiy olamini kengaytiradi, fikr-lashini, dunyoqarashini o'stiradi, o'zi uchun yangi narsalar kashf etadi, xayol qiladi va musiqadan olgan taassurotlarini o'qituvchisi yoki do'stlariga o'z so'zlari bilan ifodalab beradi.

O'qituvchi o'quvchilarda qo'shiq kuylash ko'nikmalarini shakllantirishi darkor. Bunda, avvalo, o'qituvchi musiqa savodxonligidan nazariy bilimlar beradi. Ya'ni notalar yodlashi, ularning balandligi, ovoz diapazonlari, ovoz apparatlari va hokazolar. Bu bilimlarga ega bo'lgandan so'ng avvalo qo'shiq tinglanadi, mazmu-ni muhokama qilinadi va qo'shiq kuylanadi. Bolalarni qo'shiq kuylashga o'rgat-ganda biz musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishslash metodi orqali dars jarayonida differensial guruhlarga bo'lib, ya'ni o'quvchilarni ijodiy qobiliyati va ovoziga qarab uch guruhga bo'lib:

1. Ijodiy qobiliyati yaxshi , ovozi jarangli o'quvchilar;
2. Ijodiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan , ya'ni o'qituvchining ovoziga ergashib tayanib kuylaydiganlar;
3. Ijodiy qobiliyati bo'sh va ovozi uncha yaxshi bo'limgan o'quvchilar.

darsdan so'ng yakka tarzda ish olib borishimiz mumkin.

Turli xil ritmik harakatlar, musiqiy didaktik o'yinlar ham o'quvchilarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ritmik hara-katlar orqali o'quvchilar ritmnini his qilishni o'rganishadi. Dars jarayonlarida turli xil ritmik va didaktik

o'yinlarni o'qituvchi tashkil etishi shart. Didaktik o'yinlar o'quvchilar ongini charxlaydi, topqirligini oshiradi. Shu bilan birga, ularning fikrlashini o'stirib, dunyoqarashini kengaytirishga ham imkon beradi.

Ushbu faoliyatlar ichida eng keraklisi bu o'quvchilarga musiqa asbobida chalishni o'rgatishdir. Men bu faoliyat turini eng zaruri deb hisoblashimga sabab, yuqorida keltirganimdek, yurtboshimiz qarorlari ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lган musiqa darslaridagi ba'zi bir muammolarni hal etishda bugungi kunda asos bo'la oladi. Demak, endilikda maktabda tahsil olayotgan o'quvchilar musiqa dars-lari orqali kamida bitta musiqa asbobini chalish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa o'quvchi ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat.

Musiqa darslari sermazmun o'tishi uchun avvalo musiqa xonasida dars uchun zarur bo'lган barcha o'quv qo'llanmalar, plakatlar, o'quvchilar uchun darsliklar va eng asosiysi bir nechta musiqa asboblari bo'lishi zarur. Chunki 1-7 – sinfgacha bo'lган o'quv darsliklarini qamrab olgan mavzularda faqatgina forte-pianinoda chalinib, kuylanadigan kuylar emas, balki dutor, doira, rubob kabi ko'plab milliy cholg'ularda ijro etiladigan kuylar ham bor, bundan tashqari folklor xalq qo'shiqlari, an'anaviy maqomlarning eng sodda turlari ham mavjud.

O'qituvchilar o'tilayotgan mavzuga alohida yondoshishi kerak. Kuylarni o'rgatishdan oldin musiqa asboblari haqida qiziqarli faktar aytishi, musiqa asbobi-ning kelib chiqishi tarixi, ularning tuzilishi, ovoz pardalari, qaysi musiqa asboblari oilasiga kirishi, ularning diapazonlari asosiy xususiyatlari haqida o'quvchilarga nazariy bilimlarni birinchi o'rinda berib borishi, so'ng amaliy tarzda musiqa chol-g'u asobolarida biror bir chiroyli kuy yoki o'tilishi kerak bo'lган qo'shiqni o'qituv-chi tomonidan ijro etib, o'quvchilarda qiziqishi uyg'otishi kerak. Agar musiqa xonasida fortepianinodan boshqa cholg'u asboblар bo'lmasa, u holda o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchilar qo'l mehnati orqali jarangli tovush chiqaradigan cholg'u asboblарini yasasa ham bo'ladi. Bu esa o'quvchilarda cholg'u asboblarga bo'lган muhabbatini oshiradi. Chunki u o'quvchilarning qo'l mehnati mahsulidir. Bundan tashqari, aynan bu ish o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini hosil qilib, ularda mehnatkashlik fazilatini ham yuzaga keltiradi.

Bugungi axborot-kommunikativ texnologiyalar asrida zamonaviy IT texnologiyalar orqali dars o'tishni yo'lga qo'yish o'qituvchi zimmasida. Musiqa darslarida mavzularni slaydlar, ko'rgazmali qurollar, qiziqarli o'yinlar orqali tashkil etish dars samaradorligini yanada oshiradi. Shu sababli dars berayotgan o'qituvchi zamon bilan hamnafas, barcha yangiliklardan xabardor va zamon talablariga moslashuvchan bo'lishi shart.

Dars jarayonlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchi quyidagi metodlar asosida dars o'tishi lozim:

musiqa o'qitishning og'zaki metodi; ko'rgazmali o'qitish metodi; amaliy o'qitish metodi; o'yin metodi; taqqoslash metodi; musiqiy o'quvi bo'sh bo'lган bolalar bilan ishslash metodi.

Bu metodlar dars mavzusidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Musiqa o'qi-tuvchisi darsdan tashqari qobiliyati va xohish – istagi bor o'quvchilar bilan haftada kamida 2 marta o'tiladigan to'garaklar tashkil etishi lozim. Bu o'qituvchining grafigidan kelib chiqqan holda belgilanadi va maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tashkil topgan guruhda o'qituvchi xor jamoasini yoki cholg'u ansambl jamoasini shakillantirish imkoniyatiga ega. Jamoa bilan ishslash-da, deylik xor jamoasi

tashkil etildi. O'qituvchi eng avvalo o'quvchilarni ovoz imkoniyatlarini musiqiy mashqlar orqali eshitib, tekshirib ko'radi. So'ng ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda soprano va alt guruhlariga ajratib oladi. Bunda 1-qatorda o'qituvchi ovoziga tayanib kuylaydiganlar, 2-qatorda ovozi uncha yaxshi bo'limgan o'quvchilar, 3-qatorda esa ovozi yaxshi bo'lgan o'quvchilar joylashti-riladi. Bunda o'qituvchi hech bir narsani nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Ana undan so'ng boshlanishiga oddiy bo'lgan kuylarni har bir partiya bilan alohida ishlaydi. Cholg'u ansambli jamoasini tashkil etganda esa har bir o'quvchi qiziqi-shidan kelib chiqqan holda o'qituvchi ularga cholg'u asboblarini o'rgatadi. Bunda albatta o'quvchi imkoniyati nazardan chetda qolmasligi kerak.

Bundan har bir cholg'u asbob qaysi guruh oilasiga mansub ekanligi tushun-tirilib, so'ng ularni ham torli, torli-kamonli, zarbli cholg'ular guruhlariga bo'lib dars o'tiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birgalikda ularni milliylik ruhida tarbiyalash maqsadida folklor xalq qo'shiq-lar tashkil etish va musiqa darslarida milliylikni o'quvchilar ongiga musiqa o'qi-tuvchisi singdirib borishi darkor. Folklor etnografik qo'shiqlarga: allalar, laparlar, aytimlar, mavsumiy qo'shiqlari, bolalar qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari kiradi. O'quvchilar milliy liboslarda cholg'u asbobari yordamida raqs harakatlari bilan o'z chiqishlarini tadbirlarda namoyon qilsa, bu esa boshqa o'quvchilarda ham qiziqish uyg'otishi aniq. Musiqa o'qituvchisi bu jarayonni tashkil eta olishi va mahoratlri bo'lishi talab qilinadi. Maktablarda teatr jamoasini tashkil etish ham o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usulidir. Chunki bunda har bir o'quvchi o'z qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda yo'nalish tanlaydi va yangi bilimlarni o'rganadi, ularda o'sish bo'ladi va o'zlarini yangi bir yo'nalishda sinab ko'rishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Avliyoqulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001;

Hasanov A. «Musiqa va tarbiya», Toshkent, «O'qituvchi».1993;

O'zbekiston Respublikasining Ta'llim to'g'risida" qig'onuni va "Kadrlar tayyorlashmilliy dasturi".Toshkent, Ma'rifat, 2020yil

Muhitdinova Sh . "Musiqa madaniyati darsini samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati". Metodik tavsiya. Buxoro, 2021.